

YURT ISHQIDA FIDO BO'LGAN ZAHIRIDDIN MUHAMMAD
BOBUR*Toxirova Madina Alisher qizi**Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*m.toxirova@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada Zahiriddin Muhammad boburning hayoti haqida ,hamda muborak onalari qanday ayol bo'lganliklari Boburga qanchalik yordam bergenlari, Hindistonda erishgan yutuqlari,biroq,shunga qaramay,yuragidagi yurt so'ginchini she'rlar,ruboiylar bilan ochib bergenliklari haqida so'z boradi.

Kalit **so'z:Zahiriddin** **Muhammad** **Bobur,** **Qutlug'**
Nigorxonim,Boburnoma,Kobul,Temuriylar sulolasi.

Ko'pdan berikim yor-u diyorum yo'qdur,
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdur. (Z.M.Bobur)

Tarix sahifalarida shunday shaxslar borki,yillar o'tsa ham qalbimizda mangu qoladi.Ulardan biri esa buyuk sarkarda,davlat arbobi hamda qalbimizning tub tubigachi kirib borgan shoir Zahiriddin Muhammad Boburdir.1483-yilda Andijonda tavallud topgan Bobur Temuriylar sulolasining vakili edi. Uning bolaligi ilm o'rghanish va harbiy sarkardalik sirlarini egallah bilan o'tayotgan bir vahtda murg'akkina qalbiga qayg'u tushadi, ya'ni padaribuzrukrori olamdan o'tadi,shu kundan boshlab Zahiriddin Muhammad Bobur o'z taqdirini o'zi belgilashga majbur bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.Bu o'rindi Boburning onasini ham takidlاب o'tish joiz. Boburning onasi Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni,Toshkent hokimi Yunusxonning qizi bo'lgan. U o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergen, harbiy yurishlarda unga hamrohlik qilgan.



Bobur onasini qanchalik yaxshi ko'rganini va hurmat qilganini uning "Boburnoma" asaridan ham bilib olsak bo'ladi:

"Boburnoma"da yozilgan muhim ma'lumotlardan biri bu – onasi haqidagi xabarlardir. Bobur onasi Qutlug' Nigorxonimni "Boburnoma"da o'ndan ortiq ma'lumotlarda tilga oladi. Asarda "mening validam", "mening onam", "validam", "validaxonim", "onam", "onam xonim" kabi jumla va birikmalari bilan eng ko'p tasvirga olgan ayol obrazi bo'ladi.

U Qobusnomada ;,"Yunusxon va Eson Davlatbeginning ikkinchi qizi, Umarshayx mirzoning xotini, Xonzodabegim va Bobur mirzoning validasi, Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxonning kamtarin egachisi. "Aksar qazoqliklarda va fataratlarda" o'g'li Bobur bilan birga bo'lgan fidoyi ona, o'rni kelganda onalari, inilariga qo'shilishga intilgan, ammo "hech nav'rioyate va shafqate ko'rmagan" zaifa xonim, taxtsiz shoh o'g'lining yagona chodirida panoh va himoya topgan mushtipar ona, o'z sayharakati bilan Boburni yaqinlarining qizlari Oysha Sultonbegim, Zaynab Sultonbegimga uylantirib, o'g'li qatori "surasura tashvishlar ko'rgan", "xiyli sazovorliq ko'rmagan" qayin ona, "zamona nohamvorlig'idin va davron nosozkorlig'idin" behuzur bo'lib dardlar topgan Qutlug' Nigorxonim.",- deydi.Aynan Boburning onasi qanday insonlilagini yuqoridagi jumlalardan bilib olsak bo'ladi.

Har birmizga ma'lumki Bobur Temuriylar sulolasini saqlab qolishga juda ko'p harakat qiladi,biroq taqdir taqozi bilan u Movorounnahrni tark etadi va Kobulni egallaydi.Tassavvur qilish qiyin bo'lgan voqeani , Bobur o'z boshidan o'tkazadi,yurtidan ketadi ne azoblar, ne alamlar ila,o'zi tug'ilib o'sgan,har qarich tuprog'ini o'pib ulg'aygan vatanini tashlab ketadi.Garchi u Hindistonni zabit etib buyuk sultanat barpo qilgan bo'lsada.Yurtdan ketishni hech kim Boburchalik his qila olmasa kerak nazarimda.Negaki Boburning qonida Vatanga bo'lgan muhabbat eng yuqori o'rinda turgan,va buni quyidagi ruboilardan bilib olsak bo'ladi.

**Davron meni o'tkardi sari somondin,
Oyirdi meni bir yo'li xonumonimdan
Gah boshima toj,gah baloyi ta'ma**



Nelarki,boshima kelmadi davrondin.

* * * *

Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi.

Har ishniki ayladim,xatolig' bo'ldi.

O'z yerni qo'yub Hind sori yuzlandim,

Yo rab,netayin,ne yuz qarolig' bo'ldi.

Boburning birdan bir maqsadi mustahkam , markazlashgan davlat tuzish edi,u tuzdi, biroq o'z ona diyorida emas.U juda ko'p ishlar olib bordi ,Biroq ko'ngli istagan yerda emas,

Bobur nafaqat buyuk sarkarda, balki dono hukmdor sifatida ham tarixga kirdi. Hindistonda markazlashgan kuchli davlat asoslarini yaratdi, harbiy islohotlar qildi, sug'orish tizimini yo'lga qo'ydi, madaniyat va ilm-fanni rivojlantirdi. Uning tashabbusi bilan ko'plab inshootlar bunyod etildi, san'at va adabiyot gullabyashnadi. Lekin bu muvaffaqiyatlar, erishgan yutuqlarining bari yuragidagi Vatan sog'inchini bosolmadi.U har qancha shon-shuhurat ortirsa ham, yuragining eng chekkasida doimo yurti haqida o'ylardi. Samarqandni, Andijonni, Mavarounnahrning shabadali bog'larini, yuksak madaniyatini, beg'ubor osmonini sog'inib yashardi. Uning yurti bilan bog'liq xotiralari xuddi yoshligining eng baxtli damlari singari qalbini qizdirardi.Har gal o'z saroyida ko'hna obidalar haqida so'z ketganda, Samarqandning Registoni, Andijonning beg'ubor ko'chalari ko'z oldiga kelardi. Yoshligida ot ustida chopib o'tgan kengliklar, Mavarounnahrning sokin oqayotgan daryolari, har tong yuzini yuvgan buloq suvlari unga Hindistonning eng go'zal bog'laridan ham azizroq edi shubhasiz. Bobur o'z she'rlarida hamisha bu sog'inchni his qildirdi:

Kim jon aro Vatan qayg'usi bor,

Kimsa topmas bu dardga chora.

G'urbatda yongan yurak nola qilar,

Yurt ichra bo'lsa, arzimaz dunyo g'ami.

Garchi Hindiston taxtida o'tirgan bo'lsa ham, bu begona yurt unga hech qachon o'zining haqiqiy Vatani bo'lib tuyulmagan. Bobur o'zini har doim g'arib,



yurtdan yiroqda qolgan musofirdek his qilardi. Hatto uning atrofi to‘la e’tibor, shonshuhrat, qudrat va boylik bo‘lsa ham, bularning bari unga Vatan tuprog‘ining bir hovuchiga ham teng kelmasdi.Ba’zida Hindistonning hashamatli saroylarida yolg‘iz qolganida yuragini azoblagan tuyg‘ular yanada zo‘rayardi. U Vatan sog‘inchi bilan yashadi va bu sog‘inch yuragini har kuni kemirardi. Shu bois uning she’riyati, ruboiylari, bitiklari yurak dardining aks-sadosi bo‘lib, asrlar osha bizgacha yetib keldi

Boshlang’ich sinf paytalarimda Zahiriddin Bobur haqida kichik hikoyachi o’qigan edim,”Boburni yeg’latgan qovun”. Shu hikoyani o’qiganimdan buyon hech yodimdan ketmaydi,Har Bobur ismini eshitsam aynan mana shu qovun yodimga keladi , sababi bolalik paytalarimda vatanga shu qadar muhabbat qo’yish mumkinmi? deya o’ylardim.Ha,mumkin ekan buning yaqqol misoli Zahiriddin Muhammad Bobur va uni haligacha saqlanib kelayotgan oltinga teng bo’lgan merosidir.

Boburning shaxsiyati kelajak avlod uchun beba ho ibrat manbaidir. U bizga ilm, adolat va fidoyilik orqali yuksak marralarga erishish mumkinligini o‘z hayoti bilan isbotlab berdi. U faqatgina buyuk sarkarda emas, balki yurtining, tilining, madaniyatining, ilm-fan va san’atining ravnaqi uchun xizmat qilgan ma’rifatparvar hukmdor edi. Boburning hayoti har bir yosh uchun saboq.

Xalqimizda shunday maqol bor: "O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l." Ushbu so‘zlar Boburning hayoti bilan hamohang. U begona yurtda shoh bo‘ldi, butun Hindistonni o‘ziga bo‘ysundirdi, ammo yuragi hech qachon begona diyorda tinchlik topmadi. U tug‘ilib o‘sgan yurtining havosini, tuprog‘ini, o‘zi yurib o‘tgan ko‘chalarini sog‘indi. Boburning "Boburnoma" asaridagi har bir satrda uning yuragini kemirgan Vatan sog‘inchi aks etgan.Boburning qoldirgan merosi – biz uchun g‘urur va ibrat maktabidir. U bizga faqat jang maydonida emas, balki ilm-fan, adabiyot va madaniyat sohasida ham yuksaklikka erishish mumkinligini ko‘rsatdi. Uning hayoti shuni isbotlaydiki, inson kim bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z Vataniga xizmat qilish, tilini, madaniyatini va tarixini asrab-avaylash uning eng muqaddas burchidir.Bugungi yoshlar Bobur



siy whole faqat zabardast sarkardani emas, balki yurtining kelajagi uchun jon fido qilgan chinakam fidoyini ko‘rishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot 6-sinf 1-qism (Tashkent-2017)
2. Adabiyot 5 sinf (Tashkent-2020)
3. Boburnoma (Tashkent-1960)

Manbalar:

1. <https://uza.uz/posts/451421>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bobur>